



THE ROLE OF ABU MANSUR AL-MATURIDI'S TEACHERS IN HIS DEVELOPMENT AS A DISTINGUISHED SCHOLAR

Iskandar F. Usmonov

Doctoral student at the International

Islamic Studies Academy of Uzbekistan

E-mail: iskandarusmonov1990@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Qur'an, verse, hadith, tafsir, fiqh, creed ('aqida), hadith, science of kalam, Sunnism, Hanafi school.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: The article analyzes the role of Imam Abu Mansur al-Maturidi's teachers in his intellectual formation, as well as the information about them found in historical sources. The views of scholars such as Abul Muin al-Nasafi, Rudolph, Sh. Ziyodov, A. Ak, and A. Hazbiy are compared, presenting a list of the teachers who influenced Maturidi and highlighting the key aspects of their scholarly activity. The text outlines the scholarly legacy and contributions of teachers such as Abu Bakr Ahmad ibn Ishaq al-Juzjani, Ahmad ibn Abbas al-Iyozi, Muhammad ibn Muqatil al-Razi, Nusayr ibn Yahya al-Balkhi, and Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Rajo al-Juzjani in the fields of fiqh, hadith, and kalam. Information is also provided about lesser-known teachers such as Abu Usja Tuba ibn Qutayba al-Nahawi al-Arabi. The study concludes that these teachers played a crucial role in Maturidi's attainment of profound mastery in fiqh, hadith, and particularly kalam, emphasizing Maturidi's significant contribution to the development of the science of kalam.

ABU MANSUR MATURIDIYNING ALLOMA BO'LIB YETISHISHIDA USTOZLAPINING ROLI

Iskandar F. Usmonov

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi doktoranti

E-mail: iskandarusmonov1990@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qur'on, oyat, hadis, tafsir, fiqh, aqida, hadis, kalom ilmi, sunniylik, hanafiylik.

Annotatsiya: Maqolada Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy shakllanishida ustozlarining tutgan o'rni hamda ular haqidagi tarixiy manbalarda uchraydigan ma'lumotlar tahlil qilingan. Abul Muin Nasafiy, U. Rudol'f, Sh. Ziyodov, A. Ak, A. Hazbiy kabi olimlarning qarashlari solishtirilib, Moturidiyga ta'sir ko'rsatgan ustozlar ro'yxati hamda ular faoliyatining asosiy jihatlari yoritiladi. Matnda Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoni, Ahmad ibn Abbas Iyoziy, Muhammad ibn Muqotil Roziy, Nusayr ibn Yahyo Balxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Rajo Juzjoni kabi ustozlarning ilmiy merosi, fiqh, hadis va kalom sohalaridagi xizmatlari bayon etilgan. Shuningdek, Abu Usja Tuba ibn Qutayba Nahaviy Arabiy kabi nomi kam tilga olingan ustozlar haqidagi ma'lumotlar ham keltiriladi. Tadqiqot yakunida ushbu ustozlar Moturidiyning fiqh, hadis va kalom ilmidagi yuksak darajaga erishishida muhim omil bo'lgani, ayniqsa kalom ilmi rivojida Moturidiyning tutgan o'rni alohida ta'kidlanadi.

РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ АБУ МАНСУРА МОТУРИДИЯ В ЕГО СТАНОВЛЕНИИ КАК ВЫДАЮЩЕГОСЯ УЧЁНОГО

Искандар Ф. Усмонов

*Докторант Международной академии
исламоведения Узбекистана*

E-mail: iskandarusmonov1990@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Коран, аят, хадис, тафсир, фикх, акида (вероучение), хадис, наука калама, суннизм, ханафийский мазхаб.

Аннотация: В статье анализируется роль учителей имама Абу Мансура Мотуридия в его научном становлении, а также сведения о них, встречающиеся в исторических источниках. Сопоставляются взгляды таких учёных, как Абул Муин Насафий, У. Рудольф, Ш. Зиядов, А. Ак и А. Хазбий; раскрывается перечень наставников, оказавших влияние на Мотуридия, а также основные аспекты их деятельности. В тексте изложено научное наследие и вклад таких учителей, как Абу

Бакр Ахмад ибн Исхак Джузжаний, Ахмад ибн Аббас Иёзий, Мухаммад ибн Мукотил Разий, Нусайр ибн Яхья Балхий, Абу Бакр Мухаммад ибн Ахмад ибн Раджо Джузжаний, в развитие фикха, хадиса и калама. Кроме того, приводятся сведения о менее известных наставниках, таких как Абу Усджа Туба ибн Кутайба Нахавий Арабий. В заключение подчёркивается, что данные учителя сыграли важную роль в достижении Мотуридием высокого уровня в фикхе, хадисе и каламе, а также особо отмечается его вклад в развитие науки калама.

Kirish. Imom Abu Mansur Moturidiy (vaf. 333/944) islom ilohiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning aqidaviy qarashlari hanafiylik asosida shakllangan sunniy kalom maktabining yetakchi yo'nalishlaridan – moturidiya ta'limotining poydevorini tashkil etadi. Movarounnahr ilm-fan markazi sifatida shakllangan IX–X asrlarda diniy-ilmiy fikrning o'sishi, fiqh va kalom sohalarida yuz bergan bahslar, shuningdek, turli mazhablar o'rtasidagi munozaralar Moturidiy faoliyatining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu davrda mintaqa ilmiy muhitida hanafiy fiqh, mantiq, falsafa, hadis ilmi va kalom yo'nalishlari jadal rivojlanar edi. Bunday murakkab ilmiy muhitda yetishib chiqqan Moturidiy o'z zamonasining eng yetuk allomalaridan biriga aylandi.

Har bir buyuk allomaning shakllanishida ustozlarning o'rni beqiyos bo'lgani kabi, Moturidiy ilmiy yetuklikka erishishida ham ustozlarining hissasi juda kattadir. Biroq tarixiy manbalarda ularning tarjimai hollari, ilmiy meroslari va Moturidiyning shakllanishiga qanchalik ta'sir ko'rsatganiga oid ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Ayni shu bois Moturidiy ustozlarini ilmiy jihatdan qayta o'rganish, turli manbalarda uchraydigan ma'lumotlarni taqqoslab tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Abul Muin Nasafiy, U. Rudolf, Sh. Ziyodov, A. Ak, A. Hazbiy singari tadqiqotchilar tomonidan berilgan turlicha ma'lumotlar Moturidiy ustozlari masalasining hali ham to'liq o'rganilmaganini ko'rsatadi. Ba'zi manbalarda allomaning ikki ustozdan ta'lim olgani aytilsa, boshqa manbalarda ular soni beshtaga yetadi. Shuningdek, yangi manbalarning topilishi Moturidiyning ilmiy shakllanishida fiqh, hadis va kalom sohalarida samarali faoliyat yuritgan ko'plab ustozlar bo'lganini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot Moturidiy ustozlari haqidagi mavjud manbalarni yig'ish, ularni ilmiy tahlildan o'tkazish, turli tadqiqotchilar fikrlarini qiyoslash, ustozlarning ilmiy merosi va Moturidiyning shakllanishidagi o'rni aniqlashni maqsad qiladi. Shu orqali Moturidiyning ilmiy

shakllanish jarayonini chuqurroq anglash, uning kalom ilmi rivojiga qo'shgan hissasini to'liqroq yoritish imkoniyati yuzaga keladi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda Imom Abu Mansur Moturidiy shaxsiyati va uning ilmiy shakllanishida ustozlarning tutgan o'rnini aniqlash maqsadida tarixiy–taqqoslovchi, manbashunoslik, tahliliy, hamda qiyosiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Birinchidan, tarixiy-uslubiy yondashuv (historical approach) Moturidiy istiqomat qilgan davrning diniy-ilmiy muhitini tiklash, uning ustozlari yashagan davr siyosiy va ijtimoiy sharoitlarini o'rganish uchun qo'llandi. Ushbu yondashuv orqali ularning ilmiy maktablari, faoliyati va Movarounnahr ilmiy muhiti bilan bog'liq jarayonlar qayta ko'rib chiqildi.

Ikkinchidan, manbashunoslik usuli (source analysis) orqali Abul Muin Nasafiy, U. Rudolf, Sh. Ziyodov, A. Ak, A. Hazbiy kabi tadqiqotchilarning asarlarida Moturidiy ustozlari haqida berilgan ma'lumotlar solishtirildi. Asosiy manbalar – “Tabşirat al-adilla”, “al-Qand”, “Kashf az-zunūn”, shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Uchinchidan, qiyosiy tahlil usuli Moturidiy ustozlari haqidagi turli tarixiy manbalarda uchraydigan ma'lumotlarni o'zaro solishtirishga xizmat qildi. U. Rudolf, A. Ak, A. Hazbiy va S. Oqilov tomonidan keltirilgan ma'lumotlardagi farqlar aniqlanib, ularning ilmiy asoslari o'rganildi.

To'rtinchidan, tahliliy-uslubiy yondashuv (analytical method) yordamida ustozlarning ilmiy qarashlari, ularning hanafiy fiqh va kalom rivojiga qo'shgan hissasi, shuningdek Moturidiy ilmiy merosiga ta'sir darajasi tizimli ravishda yoritildi. Ustozlarning tarjimai hollari, asarlari va ilmiy merosi birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida tahlil qilindi.

Beshinchidan, ayrim tarixiy ma'lumotlar aniqligini tekshirishda ilmiy rekonstruksiya usulidan foydalanildi. Jumladan, Moturidiyga nisbat berilgan ayrim ustozlar haqidagi ziddiyatli ma'lumotlar mavjud manbalar asosida qayta tiklandi va izohlandi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqotda qo'llangan ilmiy usullar Moturidiy ilmiy shakllanishining asosiy manbalari, uning ustozlari faoliyati va ular orqali shakllangan ilmiy maktabni chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Natijalarhar. bir buyuk shaxslarning shunday darajaga erishishida ustozlarning o'rni beqiyos hisoblanadi. Shuningdek, Imom Moturidiyning buyuk olim bo'lib yetishishida ustozlarining roli katta. Moturidiyning ustozlari haqida juda oz ma'lumotlar yetib kelgan. Quyida ba'zi olimlarning, xususan Abul Muin Nasafiy, U. Rudol'f, Sh. Ziyodov, A. Ak, A. Hazbiy kabi olimlarning alloma Abu Mansur Moturidiyning ustozlari haqida bergan ma'lumotlarini keltiramiz:

Abul Muin Nasafiy olimning 5 ta ustozdan ta'lim olganini aytadi. Ular: Muhammad ibn Muqotil Roziy, Abu Nasr Ahmad ibn Abbos Iyoziy, Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq ibn Solih Juzjoniylar, Nusayr ibn Yahyo Balxiy, Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Rajo Juzjoniylar.

Zamonaviy tadqiqotchilardan U.Rudolf o'zining kitobida allomaning faqatgina ikkita ustozini bo'lganini aytadi. Uning fikricha, alloma Abu Bakr Juzjoniyy va Abu Nasr Iyoziylardangina dars olgan [1]. Shuningdek, bunday fikrni o'zbek tadqiqotchisi t.f.d. Sh.Ziyodovda ham uchratish mumkin [2].

Turk tadqiqotchisi Ahmed Ak allomaning 5 ta ustozini: Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoniyy, Abu Nasr Iyoziyy, Muhammad ibn Muqotil Roziyy, Nusayr ibn Yahyo Balxiyy, Abu Bakr ibn Muhammad ibn Ahmad Juzjoniylar haqida ma'lumotlar keltiradi [3].

Ahmad Hazbiyy esa o'z tadqiqotida allomaning ustozlari sifatida Muhammad ibn Muqotil Roziyy, Abu Nasr Iyoziyy, Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoniyy, Nusayr ibn Yahyo Balxiylarni ko'rsatadi [4].

Bu borada t.f.n. S.Oqilov keltirgan ma'lumotlar e'tiborga molik. Olim Abul Muin Nasafiy ma'lumotlari asosida Moturidiyning ustozlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Shuningdek, u Ibn Zakariyo Yahyo ibn Ishoq, Kamoliddin Ahmad ibn Hasan Bayoziyy, U.Rudolf, So'nmas Ko'tlu va Ahmet Aklar tomonidan tuzilgan shajaralarni keltirib, ulardagi ayrim kamchiliklarga e'tibor qaratadi [5].

Allomaning Abu Usja Tuba ibn Qutayba Nahaviyy A'robiyy ismli ustozini bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar torildi. Ma'lum bo'lishicha, Moturidiy undan odobni o'rgangan [6].

Ular haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

1. Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoniyy Abu Mansur Moturidiyning birinchi ustozlaridan hisoblanib, alloma undan bir qator bilimlarni olgan [7]. Abu Bakr Juzjoniyy Samarqandda hanafiy mazhabi rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi. Nemis olimi U.Rudolf uni qomusiy olim sifatida ta'riflaydi. Manbalarda uning Abu Sulaymon Juzjoniyydan tahsil olgani qayd etilgan. Abu Bakr Juzjoniyy ilmning turli sohalariga oid "al-Farq vat-tamyiz", "Kitob at-tavba" va boshqa bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Olmon olimining fikricha, "al-Farq vat-tamyiz" huquqshunoslikka oid, "Kitob at-tavba" esa, nomidan kelib chiqqanda, didaktik asar bo'lishi mumkin. Rudolf yuqoridagilardan kelib chiqib, Abu Bakr Juzjoniyy mutakallim bo'lmaganligi va Moturidiy undan nazariy ilohiyotdan ko'ra, ko'proq hanafiy huquqshunosligi hamda hanafiy taqvosi va e'tiqodi deb ataluvchi ta'limotni o'rganishi mumkin bo'lganini ta'kidlaydi [8].

2. Ahmad ibn Abbos ibn Husayn ibn Jabala ibn G'olib ibn Jobir ibn Navfal ibn Iyod ibn Yahyo ibn Qays ibn Sa'd ibn Uboda Ansoriyy al-faqih Samarqandiy(vaf. 275/889 y.). U Samarqandda bir qancha vaqt qozi lavozimida ishlagan va turk o'lkalariga qilingan yurushlardan birida shahid bo'lgan [9]. O'z davrining juda mashhur olimlaridan bo'lib, 40 ta shogird yetishtirgan. Nasafiy uning "as-Sifat" masalasiga oid asari bo'lganini zikr qiladi [10]. Xoji xalifa uning "as-Sayf al-maslul ala man sabba ashob ar-rasul" ("Sahobiylarni so'kkan odamga qarshi

yalang'ochlangan qilich") nomli asar ta'lif etganini aytadi. Rudolf uning ilohiyotdagi yo'nalishi masalasida 3 ta nuqtaga e'tibor qaratadi. Bular:

- Abu Nasr Iyoziydan birorta rivoyat yoki hadis rivoyat qilinmagan;
- sahobalarni hurmat qilishda hanafiy an'analariga suyanuvchi olim ("as-Sayf al-maslul ala man sabba ashob ar-rasul" asari misolida);
- sharq hanafiy kalomining ilk namoyondalaridan biri (Allohning sifatlariga bag'ishlangan "as-Sifat" asari misolida).

Ma'lumotlarga ko'ra, bu asarda mo'taziliylar va Najjorning diniy qarashlari talqin etilgan [11].

3. Muhammad ibn Muqotil Roziy (vaf. 248/862 y.). Bir qancha muddat Ray shahrining qozisi bo'lgan va u yerda Abu Hanifa ta'limotini tarqatgan olimlardan biri hisoblanadi. U "ahli ray"ning (Hanafiy mazhabiga ishora) Ray shahridagi imomi, fiqh ilmining peshvosi, hadis rivoyatida "siqa" (ishonchli) roviylardan ekani ta'kidlanadi [12]. Undan Muhammad ibn Ayyub, Humomiy, Muhammad ibn Ali ibn Hakim Termiziy, Ahmad ibn Xolid ibn Ja'far va Husayn ibn Hamdonlar hadis rivoyat qilishgan. Hoji Xalifa uning "al-Mudda'iy val-mudda'a alayh" (da'vogar va da'vo qilinuvchi) deb atalgan asari borligini zikr etadi [13]. Asar nomiga e'tibor berilsa, uni fiqhga oid degan xulosaga kelish mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlil qilinsa, Moturidiy undan fiqh va hadis ilmlarini o'rgangan bo'lishi mumkin.

4. Nusayr ibn Yahyo Balxiy (vaf. 268 h.). Abu Sulaymon Juzjoniyy, Abu Muti' Hakim ibn Abdulloh Balxiy va Abu Muqotil Hafs ibn Muslim Samarqandiylardan fiqh ilmini o'rganadi. Undan Abu G'iyos Balxiy hadis rivoyat qilgan. Olim hanafiy fiqhi va kalomda yetuk shaxslardan bo'lgan. Abu Hanifaning "al-Fiqh al-absat" asarini Abu Muti' Balxiydan rivoyat qilgan [14].

5. Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Rajo Juzjoniyy (vaf. 285/881 y.). Bu olim haqida ma'lumotlar juda kam bo'lib, bizga uning bir qancha muddat Naysaburda qozilik lavozimida ishlaganigina ma'lum [15].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, Moturidiyning barcha ustozlari hanafiy fiqhi va aqidasiida yetuk olimlar bo'lishgan. Alloma Abu Nasr Iyoziy, Nusayr ibn Yahyo Balxiylardan kalom, Abu Bakr Ahmad ibn Ishoq Juzjoniyy, Muhammad ibn Muqotil Roziy, Nusayr ibn Yahyo Balxiy va Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad Juzjoniylardan esa fiqhga oid ilmlarni olgan. Ushbu olimlar Abu Mansur Moturidiyning fiqh, hadis va kalom ilmlarini mukammal egallashida muhim hissalarini qo'shganlar. Natijada Moturidiy islom ilmlarini puxta egallab, ayniqsa kalom ilmi borasida buyuk darajaga yetdi, o'zining asarlari bilan kalom ilmi shakllanishiga o'z hissasini qo'shdi va o'sha davrdagi xavoriy, mo'tazila, qarmatiylar, jahmiylar kabi bir qancha adashgan toifalarga munosib raddiyalar bera oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 149.
2. Ziyodov Sh. Abu Mansur al-Moturidiy va uning “Kitob at-ta'vilot” asari. – T.: Fan, 2009. – B. 28-29.
3. Ahmet Ak. Buyuk Turk Alimi Maturidi va Maturidilik. – Istanbul: Inonu Universiteti Ilohiyot fakulteti, 2008. – B. 44-47.
4. Hazbiy, Ahmad ibn Avazulloh. Al-Moturidiyya: dipasatan va taqviman. – ar-Riyod: Dop as-samiy, 2000. – B. 100-103.
5. Oqilov S. Movarounnahrda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. T.: Movarounnahr, 2012. – B. 72-76.
6. Nasafiy, Umar ibn Muhammad. Al-Qand fi zikri ulamo Samarqand. – Tehron: Oinai meros, 1999. – B. 115.
7. Islomov Z. Imom al-Moturidiy ustoz va shogirdlari//Al-Moturidiy ta'limoti va uning sharq xalqlari madaniyatidagi o'rni.(ma'ruzalar to'plami) – T.: TIU, 2000. – B.107.
8. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 150.
9. Oqilov S. Movapounnahrda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. – T.: Movarounnahr, 2012. – B. 21.
10. Nasafiy, Abul Muin Maymun ibn Muhammad. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. – Damashq. 1990-1993. – J. 1. – B. 356.
11. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. – T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2001. – B. 151-152.
12. Oqilov S. Movarounnahrda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. – T.: Movapounnarp, 2012. – B. 77-79.
13. Xoji Xalifa. O'sha asar. – J.2 – B. 1485.
14. Oqilov S. Movarounnarrda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. – T.: Movarounnahr, 2012. – B. 81.
15. Oqilov S. Movarounnarpda moturidiya ta'limotining shakllanish tarixi. – T.: Movarounnarp, 2012. – B. 81.